



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

O‘ZBEKISTON VA TURKIY TILLI DAVLATLAR HAMKORLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ergashev Shohrux Kamoliddin o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston va turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, tarixiy, madaniy va til birligi asosida shakllangan aloqalarning bugungi kundagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga ta’siri yoritib beriladi. Maqolada Buyuk ipak yo‘li davridan boshlab shakllangan madaniy va iqtisodiy aloqalar, mustaqillikdan keyingi yangi bosqichdagi siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hamkorlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, turkiy davlatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari, o‘zaro ishonch va strategik sheriklikning mustahkamlanishida Turkiy davlatlar tashkilotining o‘rni alohida ta’kidlanadi. Maqolada hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, mavjud imkoniyatlar va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, turkiy davlatlar, hamkorlik, integratsiya, madaniy aloqalar, iqtisodiy rivojlanish, strategik sheriklik, Turkiy davlatlar tashkiloti, mintaqaviy barqarorlik.

ОСОБЕННОСТИ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ

Эргашев Шохрух Камолiddин угли
Гулистанский государственный педагогический институт, магистрант

Аннотация

В данной статье анализируются особенности сотрудничества между Узбекистан и тюркоязычными государствами. Особое внимание уделяется влиянию связей, сформировавшихся на основе исторического, культурного и языкового единства, на современные процессы политического, экономического и социального развития. В статье рассматриваются культурные и экономические связи, берущие начало со времён Великого шёлкового пути, а также вопросы политического, экономического и культурного сотрудничества на новом этапе после обретения независимости. Кроме того, подчёркивается роль Организация тюркских государств в укреплении интеграционных процессов, взаимного доверия и стратегического партнёрства между тюркскими государствами. Научно обосновываются основные направления сотрудничества, существующие возможности и перспективные тенденции развития.

Ключевые слова: Узбекистан, тюркские государства, сотрудничество, интеграция, культурные связи, экономическое развитие, стратегическое партнёрство, Организация тюркских государств, региональная стабильность.

SPECIFIC FEATURES OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKIC- SPEAKING STATES

Ergashev Shohrux Kamoliddin o‘g‘li
Gulistan State Pedagogical Institute, Master’s student

Abstract

This article analyzes the specific features of cooperation between Uzbekistan and Turkic-speaking states. In particular, it highlights the impact of relations formed on the basis of historical, cultural, and linguistic unity on contemporary political, economic, and social development processes. The article examines cultural and economic ties that originated during the era of the Great Silk Road, as well as political, economic, and cultural cooperation in the new stage following independence. Furthermore, special emphasis is placed on the role of the Organization of Turkic States in strengthening integration processes, mutual trust, and strategic partnership among Turkic states. The study scientifically outlines the main directions of cooperation, existing opportunities, and future development trends.

Keywords: Uzbekistan, Turkic states, cooperation, integration, cultural relations, economic development, strategic partnership, Organization of Turkic States, regional stability

Hozirgi globallashuv jarayonlari va murakkab geosiyosiy vaziyat sharoitida mintaqaviy hamkorlik masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tarixiy, madaniy va til jihatdan yaqin bo'lgan turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning mustaqillikka erishgach, turkiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorligini jadallashtirishi nafaqat ikki tomonlama manfaatlarga, balki butun mintaqaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida amalga oshirilayotgan integratsion jarayonlar esa yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirib, davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama aloqalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Adabiyotlar sharhi: O'zbekiston va turkiy davlatlar o'rtasida hamkorlik aloqalarini tadqiq etish bilan shug'ullangan olimlardan O.O.Sirojov, T.S.Saidolimov, B.A.Xo'janov, I.I. Boboqulov, A.A.Masimov va boshqa tadqiqotchilarni kiritish mumkin. Chet ellik tadqiqotchilardan Robert Kilian, Richard Outzen, Pravesh Kumar Gupta, A.Chetinkaya, N.Demirel, Deniz Unver, Suat Beylur, F.Shafiyevlarning tadqiqotlarida turkiy davlatlar o'rtasida hamkorlik masalalari tadqiq etilgan. Xususan, Robert Kilianning fikricha, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi siyosiy hamkorlik mintaqaviy integratsiyada muhim ahamiyatga ega hisoblanadi [1]. Turkiyalik tadqiqotchilar A.Chetinkaya va N.Demirellarning tadqiqotlari Turkiy Davlatlar Tashkiloti a'zolari o'rtasida savdo hamkorligini oshirishda kooperatsiyaning samaradorligini baholash uchun tashkil etilishidan oldingi va keyingi yillardagi savdo ma'lumotlarini o'rganish orqali tashkilotning o'z a'zolarining tashqi savdosiga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan [2]. Richard Outzenning tadqiqotida Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan mudofaa va xavfsizlik aloqalari tahlil qilingan bo'lsa [3], hindistonlik olim Dr. Pravesh Kumar Gupta o'z tadqiqotida Turkiyaning asosiy maqsadi O'rta Osiyoda strategik ustunlikka erishish ekanligini keltirib o'tgan [4]. Ozarbayjonlik olim Farid Shafiyevning fikricha, turkiy davlatlar o'rtasida norasmiy maslahatlashuvlar mexanizmi investitsiya fondini tashkil etish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, "O'rta yo'lak" (yoki Yevropa va Xitoy o'rtasida Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyo orqali Transkaspiy transport yo'li) deb ataluvchi yo'nalishni ilgari surish va turkiy davlatlar chegarasidan tashqarida geostrategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa ko'plab loyihalarga yo'naltirilgan [5].

Natijalar: O'zbekiston va turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlik uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, mintaqaning madaniy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyo hududi qadimdan turkiy xalqlar uchun umumiy vatan hisoblanib, bu yerda yashagan xalqlar o'zaro yaqin aloqalar o'rnatib kelganlar. Xususan, qadimgi davrlarda Buyuk ipak yo'li orqali savdo, ilm-fan va madaniyat aloqalari rivojlanib, turkiy xalqlar o'rtasida integratsiya jarayonlari boshlangan. XX asr boshlarida turkiy davlatlarning mustamlakachilik va mustaqillik yo'lidagi kurashlari ham ularning o'zaro bog'liqligini kuchaytirgan. Sovet Ittifoqi davrida O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari alohida ittifoq respublikalari sifatida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, turkiy xalqlar orasidagi madaniy va til birligi saqlanib qoldi. Turkiy davlatlar o'rtasidagi munosabatlar keyingi 30 yil davomida rivojlanib kelmoqda. 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin turkiy davlatlar bilan aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, Turkiya O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan oldi va ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik faollashdi [6]. O'z navbatida, Turkiya prezidentlari Turg'ut O'zal, Sulaymon Demirel va boshqa davlat arboblari bir necha bor rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldilar. Ana shu tashrif va muloqotlar natijasida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning shartnomaviy-huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasida "Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, harbiy va harbiy-texnikaviy aloqalar, terrorizm va narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash bo'yicha ko'plab hujjatlar imzolandi. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlash imkonini berdi.

Shuningdek, xavfsizlik masalalarida ham O'zbekiston va turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida terrorizm, ekstremizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Harbiy-texnikaviy hamkorlik yo'lga qo'yilib, kiberxavfsizlik va mudofaa sohasida tajriba almashish jarayonlari davom etmoqda. Buni hamkorlikda imzolangan shartnoma va kelishuvlarda ham ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizning Turkiy Davlatlar Tashkilotidagi ishtiroki, o'z navbatida, turkiy davlatlar bilan savdo-sotiq, transport infratuzilmalari, turizm va madaniy-gumanitar sohalarda o'zaro aloqalarning yangi qirralari va imkoniyatlarini ishga solish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Tashkilotning birinchi yillik sammiti ishida istiqboldagi rivojlanishning asosiy yo'nalishlari va strategiyasi aks etgan "Samarqand deklaratsiyasi" qabul qilindi [7]. Aytish lozimki, O'zbekiston TDTga to'laqonli a'zo bo'lgach, uning faoliyatida keskin burilishlar bo'ldi. Agar bizga turki bergan omillar haqida to'xtalsak, ular bir

nechta ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Birinchi omil, bu XX asr oxirlarida jahon siyosatida vujudga kelgan butunlay yangi tizimni tashkil etuvchi geosiyosiy shart-sharoitlar va vaziyat, ya'ni turkiy tilda gaplashuvchi O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston singari suveren davlatlarning paydo bo'lishi hisoblanadi. Mustaqillik ular uchun tarixiy aloqalarni qayta tiklash va munosabatlarning yangi shakllarini yaratishga olib keldi. Buni mintaqa davlatlari o'rtasida imzolangan diplomatik aloqalarni tashkil etish bo'yicha kelishuvlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchi omil, bu turkiy davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-gumanitar sohalardagi o'zaro aloqalarini yo'lga qo'yish va ularni rivojlantirish masalalari bilan bog'liq. Avvallari u yoki bu darajada bunday aloqalar bo'lgan, lekin Rossiya imperiyasining Turkistonga kirib kelishi va keyinroq sobiq SSSR turkiy davlatlar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatishga izn bermagan. O'sha paytda ayrim madaniy-gumanitar sohalarda protokol xususiyatiga ega aloqalar ham faqat markazning ruxsati bilan amalga oshirilgan. Yoki boshqacha aytganda, barcha munosabatlar faqat markazning manfaatlariga bo'ysundirilgan.

Uchinchi omil haqida gapirganda, albatta, Turkiyaga to'xtalish va uning rolini e'tirof etish kerak. Yirik geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan bu davlat bilan ham aloqalar sun'iy tarzda taqiqqa uchragan edi. Turkiyaning o'zida esa o'zaro aloqalarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha harakatlar dasturi doim mavjud bo'lgan. Turkiya birinchilardan bo'lib mazkur davlatlarning mustaqilligini tan oldi va boshqa mamlakatlarni ham bunga da'vat etdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Turkiyaning qavmdosh davlatlar bilan munosabatlarni manfaatlar asosida uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy harakatlari turkiy tilda gaplashuvchi davlatlar kengashini tuzishga olib keldi.

Yana bir muhim jihatlardan biri bu turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning transformatsiyaga uchraganligi bilan bog'liq. Ya'ni, o'zaro hamkorlikni yangi davrning talablari va rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqqan holda rivojlantirishga e'tibor qaratila boshlandi. Uning doirasida "Turkiy dunyoning qiyofasi – 2040" dasturi ishlab chiqildi va uni amalga oshirish platformasi qabul qilindi [8]. O'zbekistonning asosiy maqsadi turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mutlaqo yangi sharoitda savdo-iqtisodiy, qishloq xo'jaligi, transport, sanoat kooperatsiyasi, iqlim o'zgarishi va ekologiya, raqamli texnologiyalar, madaniyat va turizm hamda yoshlar siyosati sohalarida hamkorlik qilishdan iborat. Turkiy tilli davlatlarni tarixiy yaqinlik, an'anaviy do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari jiddiy bog'lab turishi ta'kidlangan.

Madaniy-gumanitar sohada mamlakatimizning turk dunyosidagi tarixiy roli va ahamiyatiga urg'u bergan holda "TURKSOY", Turk Parlament Assambleyasi, Xalqaro Turk Akademiyasi, Turk madaniyati va merosi jamg'armasi imkoniyatlari doirasida yangi loyihalarni ilgari surish hamda madaniy va xalq diplomatiyasining rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish, uni mintaqa miqyosida faollashtirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning amaliy ahamiyatini tahlil qiladigan bo'lsak:

Birinchidan, O'zbekistonning dunyoning rivojlangan 50 davlati qatoriga kirishiga imkon beradigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda jamiyatimizning barcha sohalarda modernizatsiya jarayonlarini kuchaytirish, xalqimizning milliy o'zligi, tarixiy o'tmishi, tili, madaniyati va ma'naviyati bilan bog'liq azaliy qadriyatlarini qo'shimcha vositalar bilan mustahkamlashga keng yo'l ochib beradi.

Ikkinchidan, Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida O'zbekistonning xalqaro miqyosda ilgari surayotgan tashabbuslari va takliflari hamda do'stona va tinchlikparvar tashqi siyosatini amalga oshirishda yangi imkoniyatlar ochiladi.

Uchinchidan, turkiy tilli davlatlar o'rtasida nafaqat madaniy-ma'naviy aloqalar, balki savdo-iqtisodiy munosabatlarning ham yangi bosqichga ko'tarilishiga hamda o'zaro bordi-keldilar, qardoshlik qadriyatlarini qayta tiklash va mustahkamlashga, rivojlantirishga, vizasiz tartib asosida turistlar oqimini yanada oshirishga qo'shimcha imkoniyatlar beradi.

To'rtinchidan, bunday salohiyat va imkoniyatlarni yuqoridagi qadriyatlar asosida bir ittifoq doirasida jamlash va ijobiy tomonga yo'naltirish hozirgi beqaror geosiyosiy sharoitda strategik ahamiyatga ega.

Muhokama: Turkiy tilli davlatlarning ayni vaqtdagi hamkorligiga chet ellik tadqiqotchilar tomonidan bir qator ilmiy ta'riflar berilmoqda. Yevroosiyo tadqiqotlari jamiyatining a'zosi doktor Robert Katlarning fikricha, ayni vaqtda davom etayotgan turkiy tilli davlatlarning hamkorligini "Mehnat

taqsimotiga asoslangan kompozitsiya” yoki “Funksional farqlashga asoslangan integratsiya” deb nomlash mumkin [9]. Tadqiqotchining fikricha, ushbu hamkorlikda har bir davlatning o‘z roli belgilangan. Qurilish, investitsiya va mudofaa sohasida Turkiya yetakchilik qilmoqda, Ozarbayjon esa energiya yadrosiga ega bo‘lib, logistik o‘tkazuvchanlikni boshqaradi. Qozog‘iston moliyaviy va infratuzilmaviy tashkilotchi sifatida namoyon bo‘lsa, O‘zbekistonda sanoat quvvati shakllanmoqda. Qirg‘iziston raqamli xizmatlar laboratoriyasi vazifasini o‘tamoqda. Turkmaniston uglevodorodlar bo‘yicha o‘zining an‘anaviy mavqegini saqlab qolmoqda. Vengriya esa qolgan turkiy tilli davlatlar uchun Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda ko‘prik vazifasini bajarmoqda.

Ushbu hamkorlikni Vrotslav universiteti tadqiqotchisi Adrian Santano “Moslashuvchan muloqot maydoni” deb nomlagan [10]. Tadqiqotchining fikricha, bu hamkorlikni ayni vaqtda muloqot maydonidan to‘laqonli ittifoq ko‘rinishiga aylantirishning imkoni yo‘q. Buning sabablari tahlil qilinganda, Turkiya ayni vaqtda investitsiyalar uchun kapital bo‘yicha Xitoy bilan raqobatlasha olmaydi, xavfsizlik sohasida esa Rossiya bilan teng raqobat olib bora olmaydi. Undan tashqari, Turkiya NATO a‘zosi bo‘lib qolmoqda. Qolaversa, Qirg‘iziston va Qozog‘iston Rossiya boshchiligidagi harbiy ittifoq bo‘lmish KXSHT tarkibida qolmoqda.

Xulosalar: O‘zbekiston va turkiy davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik ko‘p qirrali va strategik ahamiyatga ega. O‘zbekiston va turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagi omillarda namoyon bo‘ladi:

1. Tarixiy-madaniy umumiylik — hamkorlikning tabiiy asosda shakllanishiga sabab bo‘ldi.
2. Moslashuvchan tuzilma — suverenitetni saqlagan holda hamkorlik qilish imkonini berdi. Bizning fikrimizcha, turkiy tilli davlatlar integratsiyasi Yevropa Ittifoqi yoki Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati kabi qat‘iy talab va shartlarga tayanadigan hamkorlik emas, balki moslashuvchan, suverenitetni cheklamaydigan, ko‘p yo‘nalishli hamkorlik modelidir.
3. Transport-logistika markazlashuvi — O‘zbekistonni Markaziy Osiyoning asosiy tranzit bo‘g‘iniga aylantirmoqda.
4. Qiyosiy ustunlikka asoslangan iqtisodiy hamkorlik — har bir davlatning resurslari va geostrategik imkoniyatlari inobatga olinadi.

Ushbu aloqalar nafaqat ikki tomonlama manfaatlarga xizmat qiladi, balki mintaqaviy barqarorlik, taraqqiyot va xalqaro maydondagi integratsiyani kuchaytirishga ham hissa qo‘shmoqda. Mazkur hamkorlik istiqbolda yanada rivojlanib, o‘zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida yanada mustahkamlanishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Robeter K. *Paving a New Way for Regional Integration in Central Asia? Analysing Kazakhstan-Uzbekistan Relations in the Areas of Political Cooperation and Bilateral Trade*. – Almaty, Kazakhstan, 2023.
2. Chetinkaya A., Demirel N. Analyzing the Impact of the Organization of Turkic States on the Foreign Trade of Member Countries // *Cogent Social Sciences*. – 2023. – Vol. 10(1).
3. Outzen R. Security and Military Cooperation among the Turkic States in the 2020s // *Central Asia-Caucasus Analyst*. – 2023. – Vol. 1. – Issue 2. – P. 2–3. [Central Asia-Caucasus Analyst](#)
4. Gupta P. Turkey’s Role as a Regional Actor in Central Asia: An Assessment. [Vivekananda International Foundation](#)
5. Shafiyev F. Azerbaijan and the Rise of Turkic Unity: The Journey of the Organization of Turkic States. [Insight Turkey](#)
6. [Kun.uz](#)
7. Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqand sammiti haqida // [UZA.uz](#)
8. [O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi](#)
9. Katler R. The Turkic States Are Quietly Building a Geoeconomic Power Base // *The Times of Central Asia*. – 2025. – Vol. 5. – Issue 3. – P. 7–8.
10. Santano A. Turkey’s Policy in Central Asia // *Brief Eastern Europe*. – 2025. – Vol. 3. – Issue 5. – P. 2–3.